Siddikov Askar Axrorovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA)	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firusa Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Koliyova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumom'inovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dिल्фуза Dilmurod qizi	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktranti

ORCID: 0000-0003-0309-244X

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy rivojlangan mamlakatlarda va mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy qilish orqali korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi ilmiy qarashlar, bu boradagi jahon tajribasini o'rganish, mamlakatimizda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalarini korporativ boshqaruvga joriy qilish va uning samaradorligini oshirishning huquqiy asoslari, ilmiy ta'riflar va ularning tahlili hamda korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning rolini oshirish masalalari tahlil qilingan va mualliflik qarashlari ifoda qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, korporativ boshqaruv, kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi, risk-menejment, komplayens, ichki audit va ESG-menejment tizimining hisobotdorligi, shaffofligi, oshkoraligi, samaradorlik va boshqalar.

Abstract. This article analyzes scientific views on the use of digital technologies, considers global experience in this area, the legal basis for the implementation of digital technologies and artificial intelligence in corporate governance in our country and increasing its efficiency, provides scientific definitions and their analysis, and presents the author's views on improving the efficiency of corporate governance through the implementation of digital technologies and artificial intelligence technologies in corporate governance.

Key words: digital technologies, artificial intelligence, corporate governance, supervisory board, board of directors, risk management, regulatory compliance, internal audit and ESG management system, accountability, transparency, openness, efficiency, etc.

Аннотация. В данной статье анализируются научные взгляды на использование цифровых технологий, рассматривается мировой опыт в этой области, правовые основы внедрения цифровых технологий и искусственного интеллекта в корпоративное управление в нашей стране и повышения его эффективности, приводятся научные определения и их анализ, а также излагаются авторские взгляды на повышение эффективности корпоративного управления за счет внедрения цифровых технологий и технологий искусственного интеллекта в корпоративное управление.

Ключевые слова: цифровые технологии, искусственный интеллект, корпоративное управление, наблюдательный совет, совет директоров, управление рисками, соответствие нормативным требованиям, внутренний аудит и система управления ESG, подотчетность, прозрачность, открытость, эффективность и т. д.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning o'rne beqiyos bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning sifatini va uning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqib, kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi, risk-menejment, komplayens, ichki audit va ESG-menejment



tizimining hisobotdorligi, shaffofligi, oshkoraligi hamda korporativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish va uning nazoratini ta'minlash bo'yicha integratsiyasini tashkil qilishni ilmiy-tahliliy asosga o'tkazmoqda.

Bugungi kundagi jahon va milliy iqtisodiyot yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt mustaqil qaror chiqaruvchi emas, balki rahbarlar uchun aqlli yordamchi — Decision Support Tool sifatida baholanib, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, ssenariylar yaratish va muqobil variantlarni solishtirish orqali korporativ boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligini oshirishi, agentlik muammolarining kamayishi hamda shaffoflik va hisobdorlikni mustahkamlashi ilmiy va amaliy jihatdan asoslanmoqda. Ammo ayrim ilmiy qarashlarda bunday jihatlar, ya'ni algoritmlar xatosi, ma'lumotlar sifatining pastligi va ortiqcha avtomatlashtirish tufayli yangi institutsional risklarni ham yuzaga keltirishi mumkinligi haqidagi fikrlar ham mavjuddir¹.

Biroq jahondagi turli tashkilotlar va kompaniyalarning 2025-yilda e'lon qilgan qator hisobotlari va tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kun amaliyotida ko'plab korporatsiyalar sun'iy intellektni jadal joriy etayotgan bo'lsa-da, sun'iy intellektni boshqarish (AI governance), risk-menejment hamda sun'iy intellektni joriy qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yetarli darajada shakllanmaganligi ko'rinib qolmoqda. Xususan, ayrim hisobotlarda kompaniyalarning 90 foizdan ortig'i sun'iy intellektdan turli shakllarda foydalanmoqda, ammo ularning faqat kam, ya'ni 10 foizigina qismida sun'iy intellekt uchun maxsus texnologiyalardan foydalanish dasturlari ishlab chiqilgan, to'liq integratsiyalashgan korporativ boshqaruv, nazorat va javobgarlik tizimi mavjud. Bu esa sun'iy intellektdan foydalanishda samaradorlikning pasayishi, qarorlar sifatining beqarorlashuvi va etik, huquqiy hamda institutsional risklarning ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli korporativ boshqaruv tizimiga sun'iy intellektni joriy etish bilan birga, uni boshqarish, monitoring qilish va javobgarlik mexanizmlarini ham uyg'un ravishda rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy qilish orqali korporativ boshqaruv samaradorligini yanada oshirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib aksiyadorlik jamiyatlarining strategiyasini belgilash metodologiyasini aniqlash, sun'iy intellektdan foydalanish indeksini aniqlash, uning prognozini ishlab chiqish hamda sun'iy intellektning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish masalalari bugungi dolzarb masalalar bo'lib qolmoqda. Bu masalalar xorijlik olimlardan John McCarthy, Marvin Minsky, Alan Turing va boshqalar tomonidan o'rganilgan². MDH va mamlakatimiz olimlaridan Yu.Juravliyov, N.Kasperskaya, D.Suyunov, A.Kenjabayev, D.Suyunova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan³. Shu bilan birga, korporativ korxonalarni boshqarish jarayonida ularning faoliyatida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish orqali korporativ boshqaruv samaradorligini boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llash masalasi, sun'iy intellektni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bugungi kun talablari darajasida yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu holat mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi va ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada kuzatuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil, taqqoslash va iqtisodiy sharhlash usullaridan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy, samarali va raqamli korporativ boshqaruvni ta'minlash uchun raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish zaruriyati tug'iladi. Bu vazifani raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida ta'minlash uchun albatta unga tegishli tartibda katta mablag'lar sarflash talab etiladi. Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki, barcha yirik davlatlarda oxirgi 2021–2024-yillarda katta hajmdagi mablag'lar sarflanishi davom etmoqda (1-rasm).

1 Ustahaliloliglu, M. K. Artificial intelligence in corporate governance. Corporate Law & Governance Review, 7(1), 123–134. <https://doi.org/10.22495/clgrv7i1p11>. 2025.

2 John Mc Carthy <https://hai.stanford.edu/sites/default/files/2020-09/AI-Definitions-HAI.pdf>. 1955yil. Marvin Minsky: "The science of making machines do things that would require intelligence if done by men." 1960-yillar. <https://www.britannica.com/biography/Alan-Turing> "Computing Machinery and Intelligence" maqolasi. <https://plato.stanford.edu/entries/turing-test/> 1950 yil.

3 Juravliyov Yu. I. <https://bigenc.ru/c/iskusstvennyi-intellekt-ac9fb0>. 2024-2025 yillar. Kasperskaya N.RBK. https://www.rbc.ru/technology_and_media/04/09/2025/68b8e99a79477a1859ed11. 2025. Suyunov D.X., Kenjabayev A.T. va bosh. Biznes va tadbirkorlik menejmentining raqamli transformatsiyasi (inglizcha, ruscha, o'zbekcha glossariy). O'quv qo'llanma. "Brok class servis" MCHJ bosmaxonasi. 2021-yil. -170 bet. Suyunov D.X., Kenjabayev A.T. va bosh. Elektron tijorat. Darslik. "Brok class servis" MCHJ bosmaxonasida chop qilingan. 2023-yil. -356 bet. Suyunov D.X., Elmirezayev S.A. Korporativ boshqaruv. Darslik. "Brok class servis" MCHJ bosmaxonasida chop qilingan. 2023 yil. -448 bet. D. Suvanova. To digitalize enterprise business processes methodological approach. Volume 1, Issue 9, December, 2023.



1-rasm. Sun'iy intellektga kiritilgan xususiy sarmoyalar miqdori (mln. AQSH dollarida)

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va sohalarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asosi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son⁴ qarorida 2030-yilga qadar erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar, shu jumladan:

- sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 mlrd AQSH dollariga yetkazish;
- YAIDXPda sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10%ga yetkazish;
- sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish;
- Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida mamlakatni 50 ta o'rindagi davlatlar qatoriga kiritishga erishish;

Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalar:

- sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;
- ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo'nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish;
- sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish kabi vazifalar belgilangan.

Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektidan foydalanishda turli iqtisodchi olimlar fikrlarini o'rganish va tahlil qilish kerak bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Jahon iqtisodchi olimlari va tashkilotlar tomonidan sun'iy intellektga berilgan ta'riflar va ilmiy qarashlar tahlili

Muallif	Tariflar va yondashuvlarning mazmun-mohiyati
John Mc Carthy	SI terminini yaratgan va uning «otasi» deb tan olingan. Sun'iy intellekt-bu aqlli mashinalar yaratish ilmi va muhandisligidir. Kengiroq ma'noda esa SI ni inson intellektini imitatsiya qiluvchi mashinalarni yaratishga qaratilgan ilmiy soha deb ko'rsatadi ⁵ .
Marvin Minsky	Si-bu mashinalarni inson qilsa intellekt talab qiladigan ishlarni bajarishga o'rgatish ilmidir yoki kengiroq ma'noda SI inson intellektini talab qiladigan vazifalarni (muammolarni hal qilish, o'yin o'ynash, rejalashtirish va bosh.) mashinalarga o'tkazish sifatida ko'rardi. Bu ta'rif insonga nisbatan SI ning «imitatsiya» rolini ta'kidlaydi ⁶ .

⁴ <https://lex.uz/docs/-7158604>

⁵ John McCarthy (SI terminini yaratgan, "otasi" deb ataladi) Dartmut konferensiyasi taklifi. <https://hai.stanford.edu/sites/default/files/2020-09/AI-Definitions-HAI.pdf>. 1955-yil.

⁶ Marvin Minsky (MIT professori): Original: "The science of making machines do things that would require intelligence if done by men." 1960-yillar, Britannica va boshqa manbalarda keltirilgan. <https://www.britannica.com/biography>.



Alan Turing	SI-bu mashina insondan farq qilinmaydigan intellektual xatti-harakatlarni ko'rsatsada, u intellektli hisoblanadi. Agar mashina inson kabi javob bersa va so'rovchi uni insondan ajrata olmasa, mashina intellektlidir ⁷ .
Geoffrey Hinton	SI-bu inson miyasi neyronlariga taqlid qilgan tarmoqlar orqali o'rganadigan va murakkab muammolarni hal qiladigan tizimlardir. Bunga chuqur o'qitish (deep learning) Sining asosi sifatida ko'radi, bu inson miyasining o'rganish jarayonini imitatsiya qiladi ⁸ .
Yann LeCun	SI-bu dunyo modellarini o'zi o'rganadigan va inson kabi mustaqil fikrlashga qodir va xar qanday vazifalarning bajarilishini rejalashtira oladigan tizimlarga yo'naltirilgan arxitekturadir ⁹ .
Juravlyov Yu.	SI-bu murakkab muammolarni hal qilish uchun o'zi programma yarata oladigan, matematik algoritmlar va o'zi o'rganadigan tizimlar majmuasidir ¹⁰ .
Kasperskaya N.	SI – ma'lumotlarni insonga o'xshash aqli xatti-harakatlar bilan qayta ishlay oladigan har qanday tizim, programma yoki apparatdir ¹¹ .

Umuman olganda, sun'iy intellekt — bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur ma'lumotlar va ularning tahlili, mashinaviy o'rganish, neyron tarmoqlar va algoritmik modellar asosida axborot tizimlariga inson aqliy faoliyatiga xos bo'lgan funksiyalarni, ya'ni bilish, o'rganish, ko'nikmalarni shakllantirish, tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, tavsiflash, prognoz qilish va qaror qabul qilish imkoniyatini beradigan kompleks ravishda ilmiy-texnologik tizimlar bo'lib, jamlangan tajriba va ma'lumotlar asosida o'z modellarini doimiy ravishda yangilab boradigan o'z-o'zini takomillashtiruvchi kibernetik tizimlardir. Amaliy-iqtisodiy jihatidan esa sun'iy intellekt — bu korxonalar, tashkilotlar va boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash, jarayonlarni optimallashtirish, xatarlarni baholash, prognoz qilish va avtomatlashtirish vazifalarini bajarish uchun katta hajmdagi ma'lumotlardan o'rganadigan va ular asosida mustaqil yechimlar taklif qila oladigan raqamli intellektual texnologiyalar majmuasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Keltirilgan yondashuvlarni umumlashtirish va bayon qilingan tahlillardan kelib chiqib, fikrimizcha, korporativ boshqaruvda sun'iy intellekt — bu aksiyadorlik jamiyatlari va kompaniyalarda kuzatuv kengashi, ijroiya organi, auditorlar, risk-menejment va komplayens tizimlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ma'lumotlar tahlili, prognozlash, xatarlarni aniqlash, manfaatdor tomonlar bilan interaktiv muloqot va hisobdorlikni avtomatlashtirishni amalga oshiradigan intellektual raqamli texnologiyalar hamda korporativ boshqaruv qarorlarini ESG-menejment tizimi ko'rsatkichlarining integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan harakatlar majmuasidir, degan fikrni ilgari surish mumkin.

Shunday qilib, korporativ boshqaruvda sun'iy intellekt, birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik subyektlarida korporativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish, manfaatdor tomonlar manfaatlarini mutanosiblashtirish, xatarlarni barvaqt aniqlash va boshqarish, moliyaviy ko'rsatkichlar ustidan monitoringni kuchaytirish hamda axborot-oshkoralik darajasini oshirishni ta'minlaydi. Ikkinchidan, boshqaruv jarayonlarini mashinaviy o'rganish, neyron tarmoqlar, intellektual tahlil va avtomatlashtirilgan tavsiya tizimlariga asoslangan axborot-analitik platformalarni korporativ boshqaruv arxitekturasiga integratsiya qilishni nazarda tutuvchi tashkiliy-iqtisodiy va texnologik yechimlar tizimini shakllantiradi. Uchinchidan, korporativ boshqaruvda keng qamrovli korporativ ma'lumotlar (moliyaviy hisobotlar, bozor signallari, ESG-menejment ko'rsatkichlari, steykholderlar fikrlari va h.k.)ni real vaqt rejimida qayta ishlab, umumiy yig'ilish, kuzatuv kengashi va menejment uchun dalilga asoslangan tavsiyalar va ssenariylar shakllantiradi, o'z-o'zini o'rgatuvchi intellektual boshqaruvning zamonaviy infratuzilmasini tashkil etadi. To'rtinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishni tezlashtirish va sifatini oshirish, korrupsion va opportunistik xatarlarni kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG-menejment tizimi va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini monitoring qilish uchun qo'llaniladigan "aqli" analitik platformalar, chat-botlar, risk-skoring modellari, avtomatlashtirilgan audit va komplayens modullarini o'z ichiga olgan raqamli boshqaruv instrumentlari to'plami bo'lib hisoblanadi.

7 Alan Turing "Computing Machinery and Intelligence" maqolasi. <https://plato.stanford.edu/entries/turing-test/> 1950 yil.

8 Geoffrey Hinton, Intervyu va maqolalar. <https://mitsloan.mit.edu/ideas-made-to-matter/why-neural-net-pioneer-geoffrey-hinton-sounding-alarm-ai>. 2010-2020-yillar.

9 Yann LeCun A Path Towards Autonomous Machine Intelligence". <https://openreview.net/pdf?id=BZ5a1r-kVsf>. 2022 yil.

10 Juravlyov Yu. I. Rossiya ilmiy manbalar. <https://bigenc.ru/c/iskusstvennyi-intellekt-ac9fb0.1970-1980> yillar.

11 Kasperskaya N.RBK. https://www.rbc.ru/technology_and_media/04/09/2025/68b8eec99a79477a1859ed11.202.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Suyunov D.X., Maxsudov M. The role of energy in the economic development of Uzbekistan, Science and Innovation, 1, A4, 145–149, 2022.
2. Suyunov D.X., Elmirzayev S.E. Korporativ boshqaruv, 2021. 356 bet.
3. Suyunov D.X., Kenjabayev A.T., Ro'ziyev A.O. Elektron tijorat. Darslik, 2023.
4. Suyunov D.X., Qodirov T.U. Ways for a leader to work on speech and improve speaking skills, American Journal of Pedagogical and Educational Research, 11, 29–32, 2023.
5. Suyunov D.X., Kaytarov V. Problems in the development of remote banking services in commercial banks of Uzbekistan, World Economics and Finance Bulletin, 26, 39–46, 2023.
6. Суюнов Д.Х., Хусайнов Ш.А., Хошмонов Э.А. Корпоратив бошқарув: муаммолар ва замонавий ечимлар. Монография. "BROK CLASS SERVIS" МЧЖ босмахонасида чоп қилинган, 2021 йил. 207 бет.
7. Суюнов Д., Элмирзаев С. Корпоратив бошқарув. Дарслик. "BROK CLASS SERVIS" МЧЖ босмахонасида чоп қилинган, 2021 йил. 448 бет.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>